

TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION METODLARDAN FOYDALANISH

*Tarix fani o'qituvchi
Sayitxonova Barchinoy Axatovna
Tarix fani o'qituvchisi
Axmatqulova Barnoxon O'ktamjonovna
Davlat va huquq asoslari fani o'qituvchi
Muhammadaliyeva Irodaxon G'ayratjonovna*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarix fani va uni o'qitish jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish jarayoni va uning o'ziga xos jihatlari haqida so'z boradi*

Kalit so'zlar. *Ta'lif, tarix, muassasa, maktab, dars, innovatsiya, pedagog, o'quvchi, yosh avlod.*

Ta'lif muassasalarida tarix fanlarini o'qitish uzoq tarixga borib taqaladi. Dunyoning barcha davlatlarida o'rta maxsus ta'lif muassasalaridan keyin ham har bir davlat oliv ta'lif muassasalarida o'z yurti tarixini fan sifatida o'rganish davlat fuqarolarini siyosiy, ma'naviy, iqtisodiy va marifiy dunyoqarashini shakllantirishning eng asosiy tayanchi bo'lib xizmat qiladi. Maktablarda ham bu fan o'qitilishi o'quvchilarning o'tmishni o'rganishi va undan xulasalar chiqarishiga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonimiz tarixini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlodni tariximizni chuqurroq o'rganish imkonini bermoqda. Tariximizdan faxrlanish va xulosa chiqarish imkoniyatlarini ham taqdim etmoqda. Tarixni o'qitishda innovatsion-pedagogik texnologiyalarning ahamiyati bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish, ularda fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikmalarni shakllantirishdan iboratdir. Ta'lif-tarbiya faoliyatining mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashmoqda. Hozirda inson faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni "texnologiya" ga aylanib bormoqda. Shu asosda ta'lif-tarbiya sohasida so'nggi davrda pedagogik texnologiya amal qila boshladi. Darslarni o'tishda bugungi kundagi o'quvchilarning qiziqishi, orzulari, imkoniyatlariga katta e'tibor berish lozim. Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchining o'zi ham mohir ustoz bo'la olishi kerak. Shundagina o'quvchilarning qalbiga yo'l topa olsa bo'ladi.

Tarix fanini o'qitishda bu fanga doir tarixiy empatiyadan foydalanish mumkin. Bunda maktab o'quvchilarning bu fanni tushunish doirasi kengayadi va ma'lumotlarni eslab qolish darajasi oshib boradi. Tarixiy empatiyani shakllantirish usullaridan biri tarixiy hodisalarni hikoyasi hisoblanadi. Rus tadqiqotchilari asarlarida hikoya usulidan darslarida samarali foydalanish haqida so'z boradi. Ular orasida P.V.Goran, A.A.Vagin, P.S.Leibengrublar alohida qayd etiladi. Hikoya orqali bolalarda empatiya shakllanishiga hissa qo'shish uchun A.A.Vagin tomonidan aytilganidrek turli xil maxsus vositalardan foydalanish talab etiladi. Tarixiy

empatiya shakllanishining yana bir usuli, bu shaxsiyatdir. Ta’lim oluvchining qalbida taqdirlar, harakatlar, hayot sharoitlari, tarixiy shaxsning faoliyati haqida tasavvur taixiy shaxsning holati va faoliyatini ijtimoiy hayotdagi odatiy hodisa sifatida tushunishga imkon beradi

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, ta’limning samaradorligini ko’tarishga bo’lgan qiziqish, e’tibor kundan-kunga kuchayishi tabiiy. Zamonaviy texnologiyalar qo’llanilgan mashg’ulotlar o‘quvchilar egallayotgan bilimlarlarni o’zлari qidirib topishlariga, mustaqil o’rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o’zлari keltirib chiqishlariga qaratilgan. Bugungi kunda ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor berilayotganligining asosiy sababi quyidagicha izohlashimiz mumkin:

Birinchidan, pedagogik texnologiyalarda shaxsni rivojlantiruvchi ta’limni amalga oshirish imkoniyatining kengligida.

Ikkinchidan, pedagogik texnologiyalar o‘quv-tarbiya jarayoniga tizimli faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini beradi.

Uchinchidan, pedagogik texnologiya o‘qituvchini ta’lim-tarbiya jarayonining maqsadlaridan boshlab, tashxis tizimini tuzish va bu jarayon kechishini nazorat qilishgacha bo’lgan texnologik zanjirni oldindan loyihalashtirib olishga undaydi.

To’rtinchidan, pedagogik texnologiya yangi vositalar va axborot usullarini qo’llashga asoslanganligi sababli, ularning qo’llanilishi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablarini amalga oshirishni ta’minkaydi.

O‘quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarning to’g’ri joriy etilishi o‘qituvchining bu jarayonda asosiy tashkilotchi yoki maslahatchi sifatida faoliyat yuritishiga olib keladi. Bu esa talabadan ko’proq mustaqillikni, ijodni va irodaviy sifatlarni talab etadi.

Dagogik texnologiya asosida o’tkazilgan mashg’ulotlar yoshlarning muhim hayotiy yutuq va muammolariga o’z munosabatlarini bildirishlariga intilishlarini qondirib, ularni fikrlashga, o’z nuqtayi nazarlarini asoslashga imkoniyat yaratadi. Pedagogik texnologiya texnologik yondashuvga asoslanadi Texnologik yondashuv deganda tayyor mahsulot (ishlab chiqarish texnologiyasiga o’xshash) olish uchun ishlab chiqarish jarayonlarida qo’llaniladigan usul va metodlar to’plami tushunilib, qo’ylgan maqsadlarga erishishda kutilgan natijalarni kafolatlaydigan usul metodlari majmuasi tushuniladi. Agar metod bilish yo’li, tadqiqot yo’li yoki biror faoliyatdagи ma’lum amaliyot va nazariy bilimlar sohasini egallashni harakatlar, usullar majmuasi deb tushunsak, pedagogik texnologiyaning ta’lim usuli, ma’lum ma’noda ta’lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmuasini anglatadi.

Tarix fanini o‘qitishda foydalaniladigan metodlardan biri bu – krassvord metodidir. Bolalar faqat ular o’zлari ixtiro qilgan narsalar borasidagina haqiqiy tushunchaga ega bo’ladilar va har safar, biz ularga bir narsani tez o’rgatmoqchi bo’lganimizda, biz ularni narsalarni qaytadan kashf etishdan ushlab qolamiz. (J. Puaje) Krossvord o’yni XX asrning boshlarida paydo bo’ldi va o’zining qiziqlilik bilan qisqa vaqt ichida butun dunyoga keng tarqaldi. “Krossvord” so’zi inglizcha so’zdan olingan bo’lib, kross – “kesib otish” va “word” - “so’z” so’zlarining birikmasidir va u boshqotirma ma’nosini anglatadi. Krossvord tuzish uchun “o’zaro kesishuvchi” katakchalarga so’zlar yozilishi va yozuvda umumiyl katakchalarda bir xil

harflar qatnashishi kerak. Krossvordlar shakli va hajmi jihatidan juda ko'p turli bo'ladi. Krossvordning vatanini aniqlash borasida uch davlat baxs yuritadilar. Ular, AQSh, Angliya va JAR davlatlaridir. Krossvordning gazeta sahifasida birinchi marta chop etilishi 1913-yilning 21-dekabriga to'gri keladi va bu kun birinchi gazeta krossvordining tug'ilish kuni sifatida Ginnes rekordlar kitobiga rasman kiritilgan. Bu krossvord AQShda Artur Uinn tomonidan tuzilgan bo'lib, "Hew York world" gazetasida e'lon qilingan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiygumanitar fanlar orasida qanday mutaxassis yo'nalishida tahsil olishidan qa'tiy nazar talabaning yetuk shaxs va faol dunyoqarashga ega fuqaro bo'lib yetishishida, fikrlashning to'g'ri shakllanishida tarix fanlari alohida rol o'yнaydi. Bundan tashqari bu maktab o'quvchilarning ham kelajak hayotida muhim o'rнin tutadi. Tarix fanini maktablarda va oliy ta'lim muassasalarida o'qitishda bu fanga doir tarixiy empatiyadan foydalanish mumkin. Bunda maktab o'quvchilarning bu fanni tushunish doirasi kengayadi va ma'lumotlarni eslab qolish darajasi oshib boradi. Tarixiy empatiyani shakllantirish usullaridan biri tarixiy hodisalarni hikoyasi hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lган mavzu bo'yicha mustaqil ravishda krossvord tuzish topshirig'ini bajarishi ham mustaqil bilim olishning bir turini tashkil etadi. Krossvord barcha fanlar bo'yicha tuzilishi mumkin. Krossvordning yuqorida keltirilgan jihatlari tarix darslarida qo'llanishi uchun to'liq asos bo'ladi, deb hisoblaymiz. Va shuni ham unutmaylikki "Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
2. K Hamidova; Tarix o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2015
3. A.Abduqodirov, R.Ishmuhammedov. "Ta'limda innovatsion texnologiyalar" T.:2008
4. Xodiyev B.Yu., Golish L.V., Rixsimboyev O.K. Keys-studi - iqtisodiy oliy o'quv yurtidagi zamонавиј та'lim texnologiyasi: Ilmiy-uslubiy qo'llanma / "Zamonaviy ta'lim texnologiyalari" turkumi. - T.: TDIU, 2009.
5. J.Yo'ldoshev, F.Yo'ldosheva, G.Yo'ldosheva. "Interfaol ta'lim sifat kafolati". - T.:2008